

## PVAD VP YELIMI □

□

Polivinilasetat dispersiyasi (PVAD) – bu turli sohalarda qo'llaniladigan shaffof va yulqinmaqchilikni o'zida

PVAD VP ishlatishga tayyor bo`lib, amalda cheksiz foydalanish xususiyatiga ega. U o`zining egiluvchan

### Kimyoviy tarkibi

Suv asosli plastifikatorli polivinilasetat dispersiyasi

### Xususiyatlari

- Yelimlanadigan materiallarga oson surtiladi
- Qatlammingshaffofligi va yuqori egiluvchanligi
- Yuqori yopishishqobiliyati
- Egiluvchan yelimli chok hosil qiladi

- Mexanik qorishtirishlarga barqaror
- Suv va ishqorga chidamli
- Zaharli emas, quriganidan so`ng qatlam o`zidan zararli moddalar chiqarmaydi

### **Mahsulot tarkibi**

PVAD VP yelimining TSh 64-15329272-01:2003 (№1,2,3,4 O`zg. bilan) va GOST 18992-80 bo`yicha as

Tashqi ko`rinishi

Zarrachalar o`lchami 1—3 mkm.li, quyqa va boshqa qo`shimchalarsiz bo`lgan oq rangli quyuuq suyuqlik.

Qattiq modda tarkibi

52 %

Dispersiyaning dinamik quyuuqligi

3.0 – 10.0 mPa•s

pH ko`rsatkichi

4.5 – 6.0

Sovuqqa chidamliligi, davr, (muzlashi - erishi) kam emas

Sovuqqa chidamli emas

Suyultirilgandan so`ng cho`kishi

6 %

Yelimlash qobiliyati

500 (0.5) kgs/sm

Plastifikator

Ishtirok etgan

**Qatlam tarkibi** □ □

Qatlamning tashqi ko`rinishi

Shaffof

Egiluvchanlik

Yaxshi

Ishqalanishga qarshilik

Yuqori

Yorug`likka chidamlilik

Mustahkam

## Qo`llash sohalari □ □ □ □ □

PVAD VP quyidagilarni tayyorlashda universal bog`lovchi hisoblanadi:

□ Turli xildagi teri va attorlik buyumlarini (ayollar sumkasi, hamyonlar va boshqalarni) tayyorlashda yelim sifatida

□ Qog`oz, karton, yog`och, fanera va ip gazlama matolarga yelim sifatida, gofrakarton va yog`och, karton va qog`ozdan yasalgan idish va o`ramlar ishlab chiqarishda, hamda etiketkalarini (oziq-ovqat sanoatidan tashqari) yopishtirishda

□ Suvli emulsiya bo`yoqlarida bog`lovchi sifatida

□ Muqova va jildlov ishlarini ishlab chiqarishda yelim sifatida

□ Oziq-ovqat mahsulotlarini yelimga tegmaslik sharti bilan o`rashga mo`ljallangan qog`oz, karton va yog`ochdan tayyorlangan idishlarga yelim sifatida, hamda kiyim-kechak, oyoq-kiyim va boshqalar uchun idish tayyorlashda

□ Sirtni qoplovchi sopol va fasad plitkalariga yelim sifatida, gazlamalarga pardozi berishda yakunlovchi qo`shimcha sifatida, shisha tola va shisha kanopli matolarni ishlab chiqarishda

□ Oyoq-kiyimning ichki qismi uchun mo`ljallangan materiallarga polimer qoplovchi sifatida

- Oyoq-kiyim uchun karton ishlab chiqarishda yelimlovchi modda sifatida
  
- Mebel sanoati uchun yelim ishlab chiqarishda bog`lovchi sifatida
  
- Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda yelim sifatida

## **Qayta ishlash**

PVA VP dispersiyasidan foydalanishdan avval, uni bir turdagi massa hosil bo`lguncha qorishtirish yoki chayqash lozim. Yelimlanadigan yuzani changdan, smolali, yog`li dog`lardan va boshqa kirlardan tozalash darkor. Dispersiyani yelimlanadigan yuzaning bir qismiga yupqa qatlam asosida surtib, qolgan qismi bilan yopishtirish va biroz siqib turish kerak. Yelimlash mustahkamligiga talab yuqori bo`lganda, PVA VP dispersiyasini har bir yuzaga surtish lozim bo`ladi. Imkon boricha press ostiga qo`yish talab etiladi. Yelimning sarf xarajati yelimlanadigan yuzaning tuzilishiga qarab 1m<sup>2</sup> ga 50-200 gr.ni tashkil qiladi. Tavsiya qilingan havo harorati +10 °C dan past, nisbiy namlik esa 80% dan yuqori bo`lmasligi kerak. Ko`rsatilgan shartlar asosida yelim surtilgandan so`ng bir sutkadan keyin quriydi.

## **Xavfsizlik**

## **Umumiy**

Qayta ishlash jarayonida samarali havo almashinuvi hamda terini himoyalovchi vositalar va himoya ko`zoynagi ta`minlangan bo`lishi zarur. Mahsulot teriga/ko`zga tekkan hollarda,

terini/ko`zni zudlik bilan toza suv bilan yaxshilab yuvib tashlash lozim. PVA VP dispersiyasi yong`indan xavfsiz. Zaharli xususiyatlariga ko`ra 3 – guruhga kiradi, ya`ni xavfsiz modda.

### **Saqlash**

PVA VP dispersiyasini zich yopilgan idishda +5 °C dan past bo`lmagan quruq xonada saqlash tavsiya qilinadi. Uni kuchli qizishi va muzlashiga yo`l qo`ymaslik zarur. PVAD VP havo harorati 0 °C dan past bo`lganda muzlaydi va o`z sifat va xususiyatlarini yo`qotadi. Kafolatlangan saqlash muddati ishlab chiqarilgan kundan boshlab 12 oyni tashkil qiladi.

### **O`ram**

Korxonadan ishlab chiqarilgan barcha PVA yelimlar, og`irligi 0.8 kg.li zamonaviy polietilen idishlarga va sanoat idishlariga: hajmi 40 dan 60 kg.gacha bo`lgan polietilen bochka yoki hajmi 200 kg.li po`lat bochkalarga, hamda xaridorlar bilan kelishilgan holda boshqa idishlarga ham qadoqlanadi.

### **Yuk tashish**

PVA VP dispersiyani zich yopilgan polietilen bochkalarda, +5 °C dan past bo`lmagan havo haroratida tashiladi.

